

## FORMATION OF STUDENT SPIRITUALITY THROUGH FAIRY TALES

Shodiyeva Jamila Kholboyevna,  
SVXTXQTMOHM Teacher.

### Annotation

This article gives you a brief overview on the role of fairy tales in shaping the spirituality of primary school students.

The transition from fairy tales to advanced pedagogical technologies is illustrated by examples

**Keywords:** Fairy tale, upbringing, reading, spirituality, student, game, mental attack, worldview  
Boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan talablardan biri o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash, ularda insoniy fazilatlarini shakllantirishdir.

Shu tufayli o'qish darslarida o'qib o'rganiladigan har qanday asar ana shu vazifani amalga oshirishga qaratilmog'i zarur.

Tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar o'quvchilar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Bilamizki, ertak inson xayoliy va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E'tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo'ylik, halollik tuyg'ulari ustuvor bo'ladi va har bir ertak yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g'alabasi bilan tugaydi. «...Shunday qilib ular murod-maqсадiga yetibdi» degan iboraning deyarli hamma ertak yakunida uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi. Ertaklar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning hayotga ongli munosabatini shakllantirar ekan. O'quvchilar ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning ruhiyatida bir umrga muhrlanib qoladi. Va bola voyaga yetganidan keyin ezgu ishlarga odatlanadi.

Ertaklar xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi. O'qish kitoblaridan joy olgan ertak materiallarida ijtimoiy hodisalar, kurashlar vatanni dushmandan mudofaa qilish, xalqning orzu-umidlari, urf-odatlarini, rasm-rusmlari, marosimlari va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quv dasturlari o'qish darslari oldiga o'quvchilarni yaxshi o'qish sifatlariga ega etishdek murakkab vazifani qo'yadi. Bunday vazifalarni to'laroq amalgam oshirishda ertak materiallari katta ahamiyatga ega. O'quvchilar tabiatan ertaklarni sevadilar, ularni zo'r qiziqish bilan o'qib o'rganadilar. Bundan tashqari ertaklar qadimdan tarbiya manbai hisoblangan.

Ertaklarni o'qish darslarida asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida shakllantirishga qaratiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qish orqali o'quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda vatanparvarlik, do'stlik, o'rtoqlik qadriyatlarini shakllantirish, jamoa ichida o'zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, o'qishga ongli munosabatda bo'lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish lozim. Ma'lumki, inson barkamolligida ustuvor o'rin egallagan jihatlardan biri ilmi bo'lishga intilish, Bilimga chanqoqlik hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilarda 1-sinfdan boshlab bu mavzudagi ertaklar o'qitiladi. 4-sinfdan esa "Ilm afzal" ertagi o'rganiladi. Bu ertakni o'rganishdan asosiy tarbiyaviy maqsad o'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, limning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga adabiy ertaklarni o'qitishda an'anaviy usuldan ko'ra no'anaviy usulda turli o'yin vositalaridan foydalanib dars o'tish samaraliroqdir. Chunki o'quvchilar ertakni bir marta o'qib chiqsa ular uchun tushunarli bo'ladi. Lekin turli xil o'yin vositalari orqali adabiy ertaklarni o'qitish ertakning mazmunini chuqurroq anglab yetishga va esda saqlab qolishga, ertak qahramonlariga nisbatan mehr uyg'otishga yordam beradi. O'quvchilarga adabiy ertaklarni



o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda interfaol usulda o'yin vositalardan foydalanib dars o'tish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Ikkinchi sinf o'qish darsligida berilgan "Tulki va xo'roz" nomli ertakni o'quvchilarga klaster, aqliy hujum, savol-javob yoki rolli o'yinlar orqali yetkazish mumkin. O'qituvchi matnni ifodali qilib o'qib beradi. O'quvchilar asarni qanchalik tushunib olganligini tekshirib ko'rish uchun turli o'yin vositalari orqali dars tashkil qiladi. O'yin vositalari orqali dars o'tishdan maqsad o'quvchilarni nasriy asarlarni o'qishga qiziqishni oshirish, o'z xalqiga va vataniga nisbatan mehr uyg'otishdir. O'yinlar faqat tashqi muhitdagi narsa yoki voqea hodisalarning bilish vositasi emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. O'qituvchi "Tulki va xo'roz" matnini o'qitishda Tulkining xislatlarini ko'rsatishda klaster metodidan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

O'qituvchi o'quvchilarni 2 guruhga bo'ladi va "Bitta ruchka" o'yinini tashkil qiladi. O'yin sharti quyidagicha: O'qituvchi har bir guruhga bittadan ruchka va bittadan varaq beradi. Ikki guruhdagi o'quvchilarga ham ertakdagi ertak qahramonlarining xislatlaridan birini yozish va ruchka va varaqni o'rtog'iga uzatish aytiladi. Qolgan o'quvchilar ham shu ruchka bilan yozishadi. Ruchka va varaq o'qituvchiga birinchi bo'lib yetib kelgan guruh g'olib sanaladi. Bu o'yin vositasida o'qituvchi o'quvchilarni ertak haqidagi bilimni tekshiradi.

Asarni o'qitish jarayonida o'qituvchi "Kuch birlikda" o'yinidan foydalanishi mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda jamoaviylik hissini shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi doskaga ertakga oid biror gapni yozadi. O'quvchilar gapni davom ettiradi. O'quvchilar bog'lanishli matn tuzishadi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda esda saqlash va bog'lanishli matn tuzishga yordam beriladi.

O'qituvchi dars so'ngida o'quvchilarning asar haqidagi bilimlarini umumiyashtirish uchun "Aqliy hujum" o'yinidan foydalanishi mumkin. Bu o'yin savollari o'qiladi. O'quvchilar tezkorlik bilan savollarga javob beradi. Bu o'yin orqali mavzu haqidagi bilimlar umumiyashtiriladi. Dars so'ngida o'qituvchi o'quvchilarning savollariga javob beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida adabiy ertaklarni o'rgatishda yuqorida ko'rsatilgan o'yin vositalaridan tashqari boshqa o'yin turlaridan ham foydalanib dars tashkil qilinsa dars samaradorligi yanada ortadi. O'yinlar orqali tashkil qilingan dars birinchidan, o'quvchilarni asarga bo'lgan qiziqishini uyg'otsa, ikkinchidan matn mazmunini chuqurroq anglab yetishiga ko'mak beradi.

Anvar Obidjonning "Odobli bo'lish osonmi" ertagi hajmi kichik bo'lgani bilan mazmun jihatidan kattadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu ertak orqali salomlashish odobini bilib oladilar. O'qituvchi bu ertakni o'quvchilar bilan birgalikda sahnalashtirishi mumkin. O'qituvchi ertakni ifodali o'qib beradi. Ertak haqidagi bilimlar umumiyashtiriladi. Ertakni sahnalashtirish uchun o'quvchilarni rollarga bo'lib chiqiladi va "Rolli o'yin" tashkil qilinadi. Bu ertakni rollarga bo'lishda o'qituvchi o'quvchilarni rolga mosini tanlab olishi, so'ngra ular qanday so'zlarni aytishi kerak ekanligi aniqlashtirib oladi. O'quvchilarga ertak qahramonlariga mos niqob va kiyim kiydiriladi. Sahnalashtirilgan ertak obrazlar orqali ko'rsatib beriladi.

O'qituvchi ertakni sahnalashtirib ko'rsatgandan so'ng ertak yuzasidan savol-javob o'tkazadi.

Rolli o'yinlar orqali ertakni sahnalashtirish natijasida o'quvchining tafakkuri dunyoqarashi o'sadi. Chunki, o'quvchi ertak sahnasida bevosita ishtirok etib yoki bo'lmasa ko'rib turishi natijasida ertak voqealarini-yu ertak qahramonlarini ko'radi va qahramonlarga nisbatan unda mehr uyg'onadi va mana shu sahnalashtirilgan ertak uning xotirasiga o'chmaydigan bo'lib joylanadi. Zero, "Ming eshitgandan ko'ra bir ko'rgan afzal" deb xalqimiz bejiz aytmagan.

Ertaklar o'quvchining dunyoqarashi tafakkuri, odob-axloqini o'sishiga unda tarbiya sifatlarining takomillashishiga ko'mak beradi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertaklarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda turli o'yin vositalari bilan, jumladan, "BBB" o'yini,



aqliy hujum, klaster, savol-javob yoki bo'lmasa rolli o'yinlar orqali darsni tashkil qilsak katta yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Ertaklarni bola ichki dunyosining eng ichki qavatlarigacha kirib bora oladigan, u yerda o'ziga xos o'zgarishlar yasay oladigan mo'jizaviy qurol deb hisoblash mumkin. Faqat bu quroldan foydalana bilish kerak, xolos.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ichki kechinmalarini o'zgartirish bu shaxsning fe'l-atvori, odo-axloqi, ichki dunyosida o'zgartishlar yasash demakdir.

Shu nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ertaklar o'quvchilarda turli insoniy fazilatlarni shakllantirishga, ularda ahloqiy sifatlarni tarkib topdirishda alohida o'rin tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'afforova.T.,Nurillayeva Sh., Mirzahakimova Z. "O'qish" 2-sinf darsligi T.2019.
2. Jumaboyev.M. "Bolalar adabiyoti" T."O'qituvchi"1994.
3. Jumaboyev.M. "Bolalar adabiyoti va folklor".T.2006.